“Mamun universiteti” NTM, Iqtisodiyot fakulteti dekani, PhD, dotsent

Email: ergashibadullaev90@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada mintaqa eksport faoliyatining samaradorligiga innovatsion yondashuvlarning ta'siri tizimli ravishda o'rganildi. Tadqiqotda nazariy va empirik yondashuvlar asosida mintaqalardagi eksport ko'rsatkichlari va innovatsion rivojlanish darajasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinadi hamda R&D xarajatlari, texnologik infratuzilma va raqamli texnologiyalarning eksport samaradorligiga ta'siri aniqlanadi. Tadqiqot natijalari asosida mintaqaviy eksportni rivojlantirishga qaratilgan aniq takliflar ishlab chiqilgan. Mazkur maqola ilmiy hamda amaliy ahamiyatga ega bo'lib, hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsiya, eksport, mintaqa, eksport samaradorligi.

Abstract: This article systematically examines the impact of innovative approaches on the effectiveness of regional export activities. Based on theoretical and empirical approaches, the relationship between regional export indicators and the level of innovative development is analyzed, while the effects of R&D expenditures, technological infrastructure, and digital technologies on export efficiency are identified. The research results provide concrete recommendations aimed at enhancing regional export development. This paper has both scientific and practical significance and contributes to the improvement of regional economic policy.

Key words: innovation, export, region, export efficiency.

Аннотация: В данной статье системно изучено влияние инновационных подходов на эффективность экспортной деятельности регионов. На основе теоретических и эмпирических методов проанализирована взаимосвязь между экспортными показателями регионов и уровнем их инновационного развития, а также определено влияние расходов на R&D, технологической инфраструктуры и цифровых технологий на экспортную эффективность. На основе полученных результатов разработаны конкретные предложения, направленные на развитие регионального экспорта. Данная статья имеет как научное, так и практическое значение и служит совершенствованию региональной экономической политики.

Ключевые слова: инновация, экспорт, регион, эффективность экспорта.

KIRISH

Bugungi globallashuv jarayonida mamlakatlar iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirish, tashqi bozorlarda o'z o'rnini mustahkamlash va eksport salohiyatini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratmoqda. Ayniqsa, mintaqaviy darajadagi iqtisodiy rivojlanish jarayonida eksport samaradorligini ta'minlash muhim strategik yo'nalishlardan biriga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, mintaqalarda innovatsion yondashuvlar asosida ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, mahsulotlar raqobatbardoshligini oshirish hamda yangi bozorlarni zabt etish orqali eksport ko'rsatkichlarini yaxshilash dolzarb vazifalardan hisoblanadi [1].

Innovatsion yondashuvlar eksport jarayonlarining samaradorligini oshirishda hal qiluvchi omil bo'lib, ular ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish, mahsulot sifatini oshirish, logistika tizimini optimallashtirish va marketing strategiyalarini yangilash kabi jihatlarni qamrab oladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi, elektron savdoning rivojlanishi va ilmiy-tadqiqot ishlariga asoslangan mahsulotlar ishlab chiqarish mintaqaviy eksport salohiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [2].

Mazkur maqolada mintaqaviy eksport samaradorligiga ta'sir etuvchi innovatsion omillar chuqur tahlil qilinadi, ularning amaliy natijalari baholanadi hamda samarali strategik yondashuvlar asosida eksport salohiyatini oshirish yo'llari taklif etiladi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqaviy eksport samaradorligi va unga innovatsion yondashuvlarning ta'siri hozirgi davrda jahon iqtisodiyotida ustuvor yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, iqtisodiy tizimlarning raqamli transformatsiyasi, ilm-fan va texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi, eksport faoliyatiga bo'lgan talab va yondashuvlarni tubdan o'zgartirmoqda. Ushbu holat ilmiy izlanishlarda ham o'z aksini topgan.

Xalqaro miqyosda, T. Krugman va M. Porter kabi iqtisodchilar innovatsion salohiyat va mintaqaviy raqobat ustunligi o'rtasidagi bevosita bog'liqlikni ta'kidlab o'tishgan [3]. Porterning "Milliy raqobat ustunligi" (1990) nazariyasida mintaqalarning eksport samaradorligi ularning innovatsion faoliyatiga, ishchi kuchining sifati va texnologik yangiliklarni joriy etish tezligiga bog'liq ekanligi isbotlangan. J. Schumpeter esa o'zining innovatsiya nazariyasida iqtisodiy o'sishning dvigateli sifatida "ijodiy buzish" (creative destruction) mexanizmini ko'rsatadi, ya'ni yangi texnologiyalar va yondashuvlar eskilarini siqib chiqarish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi [4].

Jahon banki, UNIDO, OECD va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan tayyorlangan hisobotlarda mintaqaviy eksport salohiyatini baholashda innovatsion ko'rsatkichlar, masalan: R&D xarajatlari, patent faolligi, texnologik tayyorgarlik darajasi, logistika tizimi raqamlashtirilganligi muhim indikator sifatida belgilanadi. Masalan, Jahon bankining "Doing Business" va "World Development Indicators" ma'lumotlari mintaqalarning tashqi savdoga tayyorligini aniqlashda asosiy vosita hisoblanadi [5].

O'zbekiston kontekstida olib borilgan tadqiqotlarda A. Yo'ldoshev (2021) [6], E. Ibadullayev (2025) [7], M. To'ychiyev (2019) [8] kabi iqtisodchilar mintaqaviy eksport salohiyatini aniqlovchi omillarni tizimli ravishda o'rgangan. Ular eksportga yo'naltirilgan sanoat klasterlarini shakllantirish, ilmiy-tadqiqot institutlari va korxonalar o'rtasidagi innovatsion hamkorlikni kuchaytirish, hududlararo infratuzilmaviy tafovutlarni qisqartirish kabi omillarni eksport samaradorligini oshirishda hal qiluvchi deb hisoblaydilar.

Shuningdek, mahalliy manbalarda ko'plab amaliy tavsiyalar ilgari surilgan. Xususan, "O'zbekiston Respublikasi eksport salohiyatini oshirish strategiyasi" (2021–2025 yillar)da mintaqaviy innovatsion infratuzilmaviy kuchaytirish, raqamli texnologiyalar asosida tashqi savdo operatsiyalarini soddalashtirish va eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar nomenklaturasini diversifikatsiyalash vazifalari belgilanadi. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar mintaqaviy eksport samaradorligining oshishida innovatsion omillar hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Biroq amaliy tadqiqotlarning yetarli emasligi, ayniqsa, mintaqalar kesimida chuqur tahlillarning yetishmasligi ushbu yo'nalishda izlanishlar olib borishni dolzarb qiladi [9].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishida ikkilamchi ma'lumotlarning statistik tahlili, eksport samaradorligi ko'rsatkichlari indeksi, kuzatuvlar, nazariy tahlil, taqqoslash, sifat kontent tahlili kabi metodologik yondashuvlar va uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi globallashuv davrida mintaqaviy eksport samaradorligiga ta'sir qiluvchi bir nechta omillar guruhlari mavjud hisoblanadi. Ushbu omillarni iqtisodiy, institutsional, tashkiliy va boshqaruv kabi bir qator guruhlariga ajratish mumkin. Bugungi jadal rivojlanish davrida innovatsiya va texnologiyaning ta'siri har bir sohada katta ulushga ega bo'lib bormoqda, jumladan tashqi savdo sohasida ham. Yangi texnologiyalarning ishlab chiqarish jarayonlariga tadbiq qilinishi yuqori raqobatbardosh va sifat jihatdan yuqori mahsulot hamda xizmatlarni ishlab chiqarishga imkon yaratadi. Bu esa o'z navbatida bugungi raqobat kuchaygan jahon bozorlariga kirishning yagona yo'li hisoblanadi.

Yuqori raqobat o'z navbatida past tannarx va yuqori sifatli mahsulotlarga talabning ortishiga olib kelmoqda. Dunyo bozorida eksport va import tovarlarining diversifikatsiyasi kengayib, iste'molchilar tanlovi ortmoqda. Texnologiyalar sohasida erishilayotgan innovatsiyalar bir vaqtning o'zida samaradorlik va mahsuldorlikni oshirish bilan birga tovar va xizmatlarni yangi bozor talablariga tez fursatda moslashtirish imkoniyatini ham bermoqda. Ya'ni, eksport qilinayotgan bozordagi iste'molchining daromad darajasiga qarab tovar va xizmatlarning ishlab chiqarish xarajatlari moslashtirilmoqda [10].

Dunyo mamlakatlari shuni anglab yetmoqdaki, ilm-fan (R&D) sohasiga kiritilgan investitsiyalar eksport hajmini oshirish imkonini bermoqda. Innovatsiyalarning vujudga kelishi esa bevosita texnologiyalar bilan bog'liq hisoblanadi. Shu boisdan, quyidagi chizmada texnologiyalarning xalqaro savdoda tutgan o'rni va ahamiyatini ko'rib chiqamiz (1-chizma).



1-chizma. Texnologiyaning tashqi savdodagi o'rni¹

Yuqorida keltirilgan chizmadan ko'rinib turganidek, texnologiyalarning birinchi ahamiyati bu elektron tijorat va onlayn bozorlarda o'z aksini topadi. Hozirgi kunda eksport bozorlarini kengaytirishda, albatta, elektron tijorat eng katta ulushga ega hisoblanadi. Bunga sabab – ishlab chiqaruvchilarga yangi va uzoq bozorlardagi mijozlargacha yetib borish imkonini berishidir. Eng yorqin misol sifatida Amazon, Alibaba, eBay kabi onlayn platformalarni keltirishimiz mumkin. Ushbu platformalar o'z mahsulotlarini jismonan mavjud bo'lmagan holda yangi bozorlarda sotmoqda. Bunday ta'sir o'z navbatida kichik va o'rta korxonalar uchun mijozlar bazasini kengaytirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda va ularning daromadini oshirish orqali sotuv ko'lamini kengaytirishga imkon yaratmoqda [11].

Ikkinchi asosiy ta'siri esa to'lovlarni raqamlashtirish bilan moliyaviy xizmatlarni amalga oshirishni jadallashtirishdir. Raqamli to'lovlar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar uchun katta xarajatlarni kamaytirishga imkon beradi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqaruvchiga tannarxni pasaytirishga, iste'molchiga esa xarid qobiliyatini oshirishga yo'l ochadi. Blokcheyn, mobil to'lovlar va raqamli hamyonlar kabi texnologiyalar korxonalarga tranzaksiyalarni vositachilarsiz, xavfsiz va samarali amalga oshirish imkonini bermoqda. Bu esa tranzaksiya xarajatlarini kamaytirib, korxonalarga – ayniqsa an'anaviy bank tizimlari kam rivojlangan bo'lishi mumkin bo'lgan rivojlanayotgan bozorlarda – samaraliroq ishlash imkonini berdi.

Texnologiyalarning mavjud savdo samaradorligini oshirishdagi ta'siri quyidagilarda namoyon bo'ladi:

Kengaytirilgan aloqa va hamkorlik. Elektron pochta, videokonferensiyalar kabi imkoniyatlarning yaratilishi kompaniyalarga real vaqt rejimida xalqaro hamkorlar, yetkazib beruvchilar va mijozlar bilan osongina bog'lanish imkonini berdi. Bu esa hamkorlikni yaxshilashga yordam beradi va umumiy samaradorlikni oshiradi. Masalan, O'zbekistondagi ishlab chiqaruvchi AQShdagi chakana sotuvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'lanib, mahsulot xususiyatlarini muhokama qilishi, narxlarni kelishib olishi va tashvishlarni tez hal qilishi mumkin.

Ta'minot zanjirini soddalashtirilgan boshqarish. Ta'minot zanjirini samarali boshqarish xalqaro savdo muvaffaqiyati uchun muhimdir. Texnologiyalar korxonalarga ta'minot zanjiri operatsiyalarini soddalashtirish uchun turli vositalar va dasturiy ta'minotlarni taqdim etmoqda. Inventarizatsiyani boshqarishning ilg'or tizimlari kompaniyalarga real vaqt rejimida mahsulotlarni kuzatish imkonini beradi, bu esa zaxiralarning maqbul darajasini ta'minlaydi hamda zaxiralar tugashi yoki ortiqcha to'planish xavfini kamaytiradi. Bundan tashqari, avtomatlashtirilgan buyurtma qayta ishlash va bajarish tizimlari yetkazib berish vaqtini tezlashtiradi va mijozlar ehtiyojini yaxshiroq qondirishni ta'minlaydi. Masalan, Amazonning murakkab logistika tarmog'i butun dunyo bo'ylab mijozlarga tez va ishonchli yetkazib berishni ta'minlashda texnologiyadan samarali foydalanadi.

Elektron tijorat va onlayn bozorlar. Elektron tijorat va onlayn bozorlarning o'sishi xalqaro savdoga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ushbu platformalar korxonalarga o'z mahsulotlari yoki xizmatlarini keng auditoriyaga namoyish qilish imkonini beruvchi global do'konlar bilan ta'minlaydi. Kichik va o'rta korxonalar endi jismoniy mavjud bo'lmasdan xalqaro bozorlarga chiqishlari mumkin va shu bilan kirish uchun to'siqlarni kamaytiradi. Masalan, hindistonlik zargarlik buyumlari ishlab chiqaruvchisi o'zining noyob asarlarini Etsy yoki eBay kabi platformalarda sotishi va dunyoning barcha burchaklaridagi mijozlarga yetib borishi mumkin [12].

Ma'lumotlar analitikasi va bozor tahlili. Texnologiya korxonalarga katta hajmdagi ma'lumotlardan foydalanish imkonini berdi va ulardan qimmatli bozor tushunchalarini olish mumkin bo'ldi. Mijozlarning xulq-atvori, afzalliklari va tendensiyalarini tahlil qilish orqali kompaniyalar mahsulot ishlab chiqish, narx strategiyasi va bozorga kirish bo'yicha ongli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Masalan, xalqaro kiyim-kechak sotuvchisi turli mintaqalardagi mashhur moda tendensiyalarini aniqlash uchun ma'lumotlar tahlilidan foydalanib, sotish salohiyatini maksimal darajada oshirish maqsadida o'z takliflarini moslashtirishi mumkin.

1 Muallif ishlanmasi



Bojxona va savdo qoidalariga rioya qilish. Xalqaro savdo murakkab bojxona qoidalarini boshqarish va turli savdo shartnomalariga rioya qilishni o'z ichiga oladi. Texnologiya bojxona rasmiylashtiruvining avtomatlashtirilgan tizimlari va savdo talablariga rioya qilish dasturiy ta'minotini taqdim etish orqali ushbu jarayonni soddalashtirdi. Ushbu vositalar hujjatlarni tartibga solishni yengillashtiradi, hujjatlar hajmini qisqartiradi va me'yoriy talablarni bajarishni ta'minlaydi, kechikishlar yoki jarimalar xavfini kamaytiradi. Masalan, AQSh Bojxona va chegara qo'riqlash xizmati tomonidan joriy qilingan Avtomatlashtirilgan tijorat muhiti (ACE) tizimi korxonalariga import/eksport ma'lumotlarini elektron shaklda taqdim etish imkonini berib, bojxona rasmiylashtiruvini tezlashtiradi.

Raqamli to'lov yechimlari. An'anaviy to'lov usullari, ayniqsa transchegaraviy operatsiyalarda, mashaqqatli va ko'p vaqt talab qilishi mumkin. Biroq texnologiya raqamli to'lov yechimlarini qabul qilishni yengillashtirdi, bu esa xalqaro savdo operatsiyalarini tezroq, xavfsizroq va tejamkorroq amalga oshirish imkonini berdi. Onlayn banking, mobil hamyonlar va kriptovalyutalar kabi variantlar yordamida korxonalar global miqyosda to'lovlarni osongina jo'natishlari va qabul qilishlari mumkin, bu vositachilarga bo'lgan ehtiyojni yo'q qiladi hamda tranzaksiya xarajatlarini kamaytiradi. Masalan, PayPal va Stripe kabi platformalar korxonalariga jug'rofiy chegaralardan qat'i nazar, butun dunyo bo'ylab mijozlardan to'lovlarni qabul qilish imkonini bermoqda.

Virtual reallik. Virtual reallik texnologiyalari xalqaro savdoda, xususan ishlab chiqarish, chakana savdo va turizm kabi sohalarda tobora ko'proq qo'llanilmoqda. VR korxonalariga o'z mahsulotlari yoki xizmatlarini virtual tarzda namoyish qilish imkonini beradi, bu esa potentsial mijozlarga ularni jismoniy ishtirokisiz bevosita boshdan kechirish imkonini yaratadi. Shu bilan birga, raqamli ma'lumotlarni joylashtirish orqali real dunyo muhitini yaxshilaydi, bu esa uni masofadan turib muammolarni bartaraf etish yoki virtual mahsulot namoyishi kabi vazifalar uchun foydali qiladi. Masalan, mebel ishlab chiqaruvchisi virtual ko'rgazma zallarini yaratish uchun VR'dan foydalanishi mumkin, bu esa turli mamlakatlardagi mijozlarga xarid qilish to'g'risida qaror qabul qilishdan oldin o'z mahsulotlarini vizualizatsiya qilish va sozlash imkonini beradi.

Innovatsion yondashuvlar asosida mintaqa eksport samaradorligini oshirishda "innovatsion infratuzilma" tushunchasini ham ko'rib chiqish lozim, chunki innovatsion infratuzilma bilan eksport samaradorligi o'rtasida bevosita va bilvosita bog'liqliklar mavjud hisoblanadi. Innovatsion infratuzilma tushunchasiga bir qator ta'riflar keltirilgan (1-jadval).

1-jadval. Innovatsion infratuzilma tushunchasiga berilgan turli tariflar²

№	Manba	Tarif
1	O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (rivojlanish strategiyasi hujjatlari)	Innovatsion infratuzilma — bu innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi ilmiy, texnologik, moliyaviy va tashkiliy muassasalar majmuasidir.
2	Xalqaro iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (OECD)	Innovatsion infratuzilma — bu innovatsiyalarni ishlab chiqish va amaliyotga tadbiq etish uchun zarur bo'lgan ilmiy-tadqiqot markazlari, texnoparklar, inkubatorlar va axborot tarmoqlarining tizimidir.
3	I.V. Tvorogova	Innovatsion infratuzilma — bu yangi mahsulot va texnologiyalar yaratish, ularni tijoratlash va eksportga yo'naltirish imkonini beruvchi muhit va vositalar tizimi.
4	A.N. Tatarkin	Innovatsion infratuzilma — bu innovatsion jarayonlar uchun zarur bo'lgan texnologik, informatsion, moliyaviy va intellektual resurslar yig'indisidir.
5	A.A. Abdug'aniyev	Innovatsion infratuzilma — bu startaplar, ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish laboratoriyalari va ular o'rtasidagi uzviy hamkorlik tarmog'idir.
6	YUNESKO Innovatsiya bo'yicha hisobotlari	Innovatsion infratuzilma — bu innovatsion g'oyalarni real mahsulot va xizmatlarga aylantirishga xizmat qiluvchi raqamli, texnologik va ilmiy infratuzilma tarmog'idir.

Yuqorida jadvalda keltirilgan tariflardan kelib chiqib aytishimiz mumkinki Innovatsion infratuzilma — bu yangi mahsulotlar, xizmatlar va texnologiyalarni yaratish, ishlab chiqish va joriy etish uchun zarur bo'lgan texnologik, tashkiliy, ilmiy va axborot resurslari majmuasidir, ya'ni innovatsion g'oyalarni amaliyotga real hayotga tadbiq etish uchun xizmat qiluvchi infratuzilma hisoblanadi.

Innovatsion infratuzilmaning bir qator komponentlari mavjud hisoblanib ularga asosan quyidagilar kiradi:

- internet va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari;
- raqamli platformalar;

2 Muallif ishlanmasi



- erkin iqtisodiy zonalar, logistika markazlari;
- ilmiy tadqiqot markazlari tajriba sinov laboratoriyalari, texnopark va innovatsion markazlar [13].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy eksport samaradorligini oshirishda innovatsion yondashuvlar hal qiluvchi ahamiyatga ega. Ayniqsa, texnologik yangiliklar, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalar (R&D), raqamli infratuzilma, hamda intellektual mulk faoliyati kabi omillar eksport hajmi va sifati bilan bevosita bog'liqdir. Tadqiqot natijalariga ko'ra, innovatsion salohiyat yuqori bo'lgan mintaqalarda eksport ko'rsatkichlari nisbatan yuqori, mahsulotlar esa ko'proq qayta ishlangan va yuqori qo'shilgan qiymatga ega bo'lishi aniqlangan.

Shuningdek, mintaqalar o'rtasida eksport va innovatsion rivojlanish bo'yicha katta tafovutlar mavjud. Bu tafovutlar infratuzilma, kadrlar salohiyati, sanoat tarmoqlarining rivojlanish darajasi, hamda davlat tomonidan ko'rsatilayotgan qo'llab-quvvatlash choralari bir xillikda bo'lmasligi bilan bog'liq. Tahlillar asosida xulosa qilish mumkin, mintaqalarda eksport samaradorligini oshirish uchun innovatsion yondashuvlarni tizimli ravishda qo'llash zarur. Bu esa nafaqat tashqi savdo salohiyatini, balki hududiy iqtisodiy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ham kuchaytiradi.

Tadqiqot ishimizda olib borilgan izlanishlar, xorijlik adabiyotlarni o'rgangan holda quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

1. Mintaqaviy innovatsion infratuzilmani rivojlantirish. Har bir mintaqada texnoparklar, innovatsion markazlar va inkubatorlarni tashkil qilish va ularni eksportga yo'naltirilgan mahsulotlar ishlab chiqarishga ixtisoslashtirish. Universitetlar va ilmiy-tadqiqot institutlari bilan sanoat korxonalarini o'rtasida innovatsion hamkorlikni kuchaytirish.

2. Innovatsion faoliyatni davlat tomonidan rag'batlantirish. R&D faoliyati bilan shug'ullanuvchi eksportyor korxonalar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish va innovatsion mahsulotlar eksportini moliyaviy va sug'urta mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlash.

3. Raqamli texnologiyalarni eksport faoliyatiga integratsiyalash. Eksportchilarga mo'ljallangan "raqamli savdo platformalari"ni yaratish va mintaqalar bo'yicha integratsiyalash orqali logistika, bojxona va sertifikatlashtirish jarayonlarida raqamli yechimlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish.

4. Hududiy eksport strategiyalarini ishlab chiqish. Har bir mintaqaning sanoat va resurs salohiyatidan kelib chiqqan holda eksportga ixtisoslashgan mahsulotlar ro'yxatini shakllantirish va mintaqaviy eksport klasterlarini yaratish va ularni innovatsion texnologiyalar asosida rivojlantirish.

5. Kadrlar salohiyatini oshirish. Eksport va innovatsiya yo'nalishida faoliyat yurituvchi mutaxassislar uchun malaka oshirish va qayta tayyorlash dasturlarini ishlab chiqish va mahalliy OTMlarda "eksport menejmenti" va "innovatsion iqtisodiyot" kabi ixtisosliklarni joriy etish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Ibadullaev, E. (2025). Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli yo'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida). YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT, 3(4).
2. Suhud, U., Sania, N., Prabawani, B., Azinuddin, M., Ibadullaev, E., Sherov, A., ... & Matkarimov, F. (2025). Soundscapes of Loyalty: Modeling Revisit Intention in Ethnic Music Tourism within a Sustainable Tourism Framework. *Journal of Posthumanism*, 5(5), 2467-2492.
3. Krugman, P. (1991). Increasing Returns and Economic Geography. *Journal of Political Economy*, Vol. 99, No. 3.
4. Schumpeter, J. A. (1934). *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press.
5. World Bank. (2024). *World Development Indicators*. www.worldbank.org
6. A. Yo'ldoshev. (2021). Mintaqaviy eksport salohiyatini oshirishda innovatsion strategiyalarning roli. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" jurnali, №2.
7. [Sobirov, Y.](#), [Saidmatov, O.](#), [Matyakubov, U.](#), [Khodjanizayov, E.](#), [Ibadullaev, E.](#), [Bekjanov, D.](#) and [Nodirbek, E.](#) (2024), «The Nexus Between Women Employment and Tourism in Central Asia Countries: A Dynamic Panel Data Approach», [Chen, J.S.](#) (Ed.) *Advances in Hospitality and Leisure*, Volume 20 (*Advances in Hospitality and Leisure*, Vol. 20), Emerald Publishing Limited, Leeds, pp. 55-78. <https://doi.org/10.1108/S1745-35422024000020004>
8. M. To'ychiyev. (2019). O'zbekiston mintaqalarida eksport salohiyatini rivojlantirish yo'llari. "Iqtisodiy tadqiqotlar" jurnali, №4.
9. Arslonbek Nurjanov, Fozil Xolmurotov, Ergash Ibadullaev, Jasurbek Ataniyazov, Manzura Masharipova, Feruza Yusupova and Xolilla Xolmurotov (2025). The impact of renewable energy consumption on export performance in Uzbekistan: A vector autoregression approach. *Environmental Economics*, 16(2), 186-198. doi:10.21511/ee.16(2).2025.14
10. Ibadullaev, E., Pagliacci, F., Defrancesco, E., et al., 2025. Farmers' Attitudes on Agritourism Activity Development in Uzbekistan: A Khorezm Region Case Study. *Research on World Agricultural Economy*. 6(1): 435–451. DOI: <https://doi.org/10.36956/rwae.v6i1.1474>
11. Halmuratov, G., Madraximov, Q., Zakirova, G., Xolmurotov, X., Djumabayeva, S., Yaqubova, Y., & Xolmurotov, F. (2025). The Impact of Energy Consumption and Trade Openness on Economic Growth in Uzbekistan: A Vecm Approach. *International Journal of Energy Economics and Policy*, 15(2), 23–31. <https://doi.org/10.32479/ijee.17550>



12. Chupin, A. Sherov, A. Rakhimov, T. Hajiyev, E. Hajiyev, H. (2025). Multi-Step Neutrosophic Cognitive Map Based Decision Making Framework for Short-Term Financial Stock Market Price Trend Prediction. *International Journal of Neutrosophic Science*, (), 153-163. DOI: <https://doi.org/10.54216/IJNS.260211>
13. Boymuradov, S., Umirova, N., Matyakubov, M., Sherov, A., Gofurov, J., Yuldoshev, F., & Boymatova, Z. (2025). Application of environmental engineering in preventing eutrophication and protecting water species. *International Journal of Aquatic Research and Environmental Studies*, 5*(1), 305–320. <https://doi.org/10.70102/IJARES/V5I1/5-1-31>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
